

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TARMOQLAR IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 658:6.01(575.1)

SUVPO‘LATOY OZODJON ALIJON O‘G‘LI

KORXONALARDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISH

70310102 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: TDIU “Iqtisodiyot”

kafedrasi dotsenti, PhD J.Fayzullayev

TOSHKENT-2023

Magistrlik dissertasiya ishi “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida dastlabk himoyadan o‘tgan.

01- sonli bayonnoma « 20 » 04 2023 y.

Ilmiy rahbar: dos. J.Fayzullayev.



imzo sana

Magistrant: Suvpo‘latov O.A.


imzo sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “ 14 ” 05
№ 1/04 raqami bilan ro‘yxatga olingan

“Ximoyaga tavsiya etiladi”

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası
mudiri, dots I.Xotamov 

“ 3 ” may 2023-yil

Himoya 2023-yil “ 18 ” 05 soat 10⁰⁰ da
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tdi

ANNOTATSIYA

Magistrlik dissertasiya ishi dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lib bunda korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu nuqtai nazaridan bu o'z navbatida korxonlarda oqilona boshqaruv jarayonini tashkil etish orqali samarali natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Bugungi kunning ilm-fan yutuqlaridan keng va samarali foydalanish, ishlab chiqarishda eng ilg'or va so'nggi avlod texnologiyalarini joriy etish, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida innovatsiyalarning rivojlanishiga e'tiborni yanada kuchaytirish uchun innovatsion jarayonlarni boshqarishni shakllantirish orqali milliy amaliyot va yutuqlarimiz bilan yuqori darajalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak korxonalarda yuqori daromadlilikka erishish uchun boshqaruvning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli yondashuvlar, vositalar va metodologiyalarni o'rganishdir. Tadqiqot shuningdek, innovatsion jarayonlarni boshqarishda korxonalar duch keladigan muammolarni aniqlashga qaratilgan va bu qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: *Innovatsion jarayon, innovatsion loyiha, global innovatsiyalar indeksi, fundamental tadqiqot, empirik tadqiqot*

Summary

This dissertation is dedicated to the actual topic, in which scientific proposals and practical recommendations on the management of innovative processes in enterprises have been developed. From this point of view, this, in turn, shows that effective results can be achieved by organizing a rational management process in enterprises. Therefore, in order to achieve high profitability in enterprises, the correct management is of great importance. The purpose of this study is to study different approaches, tools and methodologies that can be used to manage innovation processes in enterprises.

In particular, a review of the related literature as well as other research papers, scientific publications on the issue, and research papers were prepared. The Ministry of Innovation is collaborating with statistical data-based ways of measuring the volume of inventive work that has been done to determine the practical application of science in security measures. additionally, examples of creative economies from other nations were presented.

The study also aims to identify the problems faced by enterprises in the management of innovation processes and provides recommendations for overcoming these difficulties.

Key words: *Innovative process, innovative project,, fundamental research, empirical research, global innovation index.*

Mundarija

ANNOTATSIYA	3
MUNDARIJA	5
KELTIRILGAN JADVALLAR RO'YHATI.....	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO'YHATI.....	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR.....	8
I BOB. KIRISH	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	10
1.2. Dadqiqot maqsadi va vazifalari	10
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	11
1.4. Tadqiqot obekti va predmeti.....	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	12
1.5. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	13
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
2.1 Kirish.....	14
2.2. Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy asoslari	14
2.3. Mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	25
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI	31
1.1. Tadqiqot dizayni.....	31
1.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	31
1.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	31
1.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	34
1.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	35
1.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	36
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	38
4.1. Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarish va rivojlantirishda xorij tajribasi	38
4.2. Mamlakatimiz korxonalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlili	50
4.3. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	63
V BOB. XULOSA	65
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	65
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	68
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	72

I BOB. KIRISH

Rivojlangan mamlakatlar milliy boyligining o'sishi, chuqur tarkibiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishi taraqqiyotning xom-ashyo yo'nalishidan innovatsiya yo'nalishiga o'tishi, natijada butun iqtisodiyotda strategik muhim o'zgarishlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Bozor islohotlarining amalga oshirilishi, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, jahon iqtisodiy tizimining bilimlar va axborot rolining o'sishi tomon o'zgarishi, yangi texnologiyalar va kapital bozori o'rtasidagi aloqalar kuchayishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir.

Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz. Shuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo'lishi kerak" (Shavkat Mirziyoyev, [www/uza/uz](http://www.uza.uz)).

Innovatsiyalarni boshqarish biznes muvaffaqiyatining muhim jihati bo'lib, mahsulotni ishlab chiqish, mijozlar ehtiyojini qondirish va daromadni oshirishga yordam beradi. Innovatsion jarayon bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi, jumladan, g'oyalarni yaratish, g'oyalarni tanlash, resurslarni taqsimlash, ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish, ishga tushirish va doimiy takomillashtirish. Innovatsiyalarni samarali boshqarish ijodkorlikni qadrlaydigan, hamkorlik va tavakkalchilikka yordam beradigan hamda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur resurslar va yordamni ta'minlovchi innovatsiya madaniyatini talab qiladi. o'zining innovatsion jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqara oladigan kompaniyalar raqobatchilardan oldinda bo'lishlari, yuqori daromad va rentabellikka erishishlari va mijozlariga ko'proq qiymat berishlari mumkin.